MULTIDISCIPLINARY JOURNAL: FUNDAMENTAL RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 02. ISSUE 06. JUNE 2026.
ResearchBib Impact Faktor: 13.943 ISSN: 3060-513X

IMOM AL-BUXORIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI, HADIS ILMI RIVOJIDAGI O‘RNI

Ermatova Zulfiya Abdug‘aniyevna
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Filologiya va tillarni o‘qitish: arab tili
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Hijriy uchinchi asrda yashab, “Al-Jome as-Sahih” asari bilan hadis tarixida muhim o‘rin tutuvchi Imom Buxoriy, bu asaridan tashqari yana “Tarix al-Kabir”, “Tarix al-avsot” va “Duafa ul-sag‘ir” nomli asarlari bilan islom ilmlariga muhim hissa qo‘shgan.. Ushbu maqolada Buxoriyning hayot yo‘li, uning ta’lim olish yo‘lida qilgan safarlari, ilmiy yutuqlari, yaratgan asarlari hamda uning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Imom Buxoriy, “Tarix al-Kabir”, “Tarix al-avsot, isnod, hadis, ilmiy safarlar, Makka, Buxoro, sahih va nosahih,*

Muhaddislar imomi, “Al-Jome as-Sahih” asari muallifi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Juafiy al-Buxoriy 810 yil 19 iyul (hijriy 194-yilning 13-shavvolida) Juma kuni Buxoroda dunyoga keldi.[1] Uning kunyasi Abu Abdulloh, nisbasi esa al-Buxoriy va al-Juafiy hisoblanadi.[2] Buxoro yaqinidagi qishloqdan bo‘lgan Buxoriyning bobosining bobosi Bardazbeh, Islom qo‘shinlari ushbu hududni fath qilgan paytda asirga olingan. Buxoriyning bobosi Ibrohim haqida ko‘p ma’lumot yo‘q, lekin uning

[1] Xotib, Abu Bakr Ahmad b. Ali b. Sobit al-Bag‘dodiy, “Tarixi Bag‘dod av Madinat as-Salom”, Bashshar Avvad Ma’ruf, Dorul-G‘arbi-Islomi Bayrut, 2001/1422, II, 324

[2] Al-Juafiy nisbasi Imom Buxoriyning katta bobosi Bardazbeh bilan bog‘liq. U yashagan davrda bir inson agar boshqa insonning vositasida Islomga kirsa, unga nisbat etib nomlana boshlangan. Buxoriyning katta bobosi Mug‘iyra o‘z zamonasidagi Buxoro voliysi al-Yaman al-Juafiy vasilasi ila musulmon bo‘lganligi uchun, unga nisbat etilib, Juafiy nomini olgan. Manba: Ibn Hojar, Abu Fazl Shahobiddin Ahmad bin Ali Muhammad al-Asqaloniy, “Hadyus-Sari’ Muqaddimatu Fathil-Baari’ Sharhu Sahihil-Buxoriy”, Damashq, 2000,669-bet

otasi Ismoil haj ziyoratidan so‘ng Madinada ma’lum bir muddat qolib, Imom Molik bilan uchrashgani va undan hadis qabul qilib olgani, shuningdek, Hammod ibn Zayd va Abdulloh ibn Muborakdan rivoyatlar qilgani haqida ma’lumotlar bor.[3] Imom Buxoriyning tug‘ilgan sanasi o‘sha davr olimlaridan farqli o‘laroq aniq keltirilishining sababi shuki, uning otasi o‘qimishli kishi bo‘lgani uchun o‘g‘lining tug‘ilgan kuni sanasini aniq manbalarga yozib, belgilab qo‘ygan. Zamondoshlarining keltirishicha, Ismoil nihoyatda halol inson bo‘lib, uning oilasiga “mehnatsiz topilgan bir dirham pul ham kirmaganligi” e’tirof etilgan.[4]

Buxoriy hali yoshligida otasidan yetim qolgan va unga otasining ba’zi kitoblari meros bo‘lib qolgan. Ulardan biri Sufyon as-Savriyning “al-Jome” asari bo‘lib, Buxoriy uni Abu Hafs Ahmad ibn Hafsdan tinglagan.[5] Buxoriyning bolaligida hadis yodlashni boshlashi haqida uning kotibi Muhammad ibn Abu Xotim keltirgan rivoyatga ko‘ra, Buxoriy shunday deydi: “Men hali endigina o‘qishni o‘rganayotgan paytlarimdayoq menga hadis yodlash uchun ilhom berildi”. Abu Xotim Imom Buxoriydan o‘sha paytda necha yoshda bo‘lganligini so‘raganda, u “O‘n yoshda yoki undan ham kichikroq edim”, deb javob beradi.[6]

Imom Buxoriy Buxoroda hijriy 204-yilda (819) Muhammad ibn Salom al-Bikandiy va Abdulloh ibn Muhammad al-Musnadiylardan hadis olishni boshlagan. Hijriy 210-yilga (825) kelib u o‘n bir yoshida muhaddis Doxiliy majlislariga qatnashgan va o‘tkir zehni va kuchli xotirasi bilan hammani hayratda qoldirgan. 210

[3] Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Juafiy, “Kitob at-Tarixil-Kabir” Darul-Kutubil – Ilmiyya, Bayrut, 323-bet.
[4] Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. [Mas’ul muharrir: V.Rahmonov]. Qayta ishlangan 4-nashri. —T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019.
[5] Xotib, Abu Bakr Ahmad b. Ali b. Sobit al-Bag‘dodiy, “Tarixi Bag‘dod av Madinat as-Salom”, Bashshar Avvad Ma’ruf, Dorul-G‘arbi-Islomi Bayrut, 2001/1422, II, 324
[6] Xotib, “Tarix” 324

(milodiy 825) yilda u o‘n olti yoshida Abdulloh ibn Muborak va Vakiyning kitoblarini yod olgani, shuningdek, Ray fiqhini ham o‘rganganligi rivoyat qilinadi.[7] Bundan tashqari, u yoshlik chog‘idan fuqaholar bilan bahsga kirishganligi manbalarda keltiriladi. Buxoriy hadis rivoyat qilishni boshlashi haqida shunday degan: “Sahih rivoyatlarni zaiflaridan ajrata olmagunimcha, Ray ahlining kitoblarini o‘rganmagunimcha, hadis rivoyati uchun dars berishga qo‘l urmadim”.

210-hijriyda (825) 16 yoshli Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan birga hajga yo‘l oladi.[8] Haj amallarini bajargach, akasi va onasi Buxoroga qaytadi, ammo Buxoriy ilm o‘rganish uchun Makkada qoladi. U Makkadagi mashhur ustozlar, Azroqiy va Ismoil ibn Solimning darslariga qatnashadi, keyinchalik ilm talabida boshqa yirik markazlarga sayohat qilishni boshlaydi. Buxoriy bu sayohatlari haqida shunday deydi: “Basrada besh yil qoldim. Bu vaqt mobaynida o‘zimdagi hadislarni tartibga solib, qaysi ma’lumotni qayerga joylashtirish haqida o‘ylardim. Har yili hajga borib, Basraga qaytib kelardim. Ikki martadan Suriyaga, Misrga va Jaziraga bordim, Kufa va Bag‘dodga esa hadis olimlari bilan birga ko‘p marta tashrif buyurdim”.[9] Bu ma’lumot Buxoriyning ilmiy sayohatlari davomida hadislarni o‘rganish va to‘plash uchun ko‘p joylarga safar qilganligini ko‘rsatadi. Bu safarlar orqali u faqat o‘z davridagi mashhur muhaddislardan bilim olish bilan cheklanmay, balki hadislarni tasniflash va to‘plashga ham jiddiy e’tibor qaratgan.

Buxoriy o‘zining ilmiy sayohatlari davomida nafaqat kuchli bilim darajasi, balki o‘tkir xotirasi bilan ham tez e’tibor tortar edi. Buxoriyning zamondoshi bo‘lgan mashhur muhaddis Xoshid ibn Ismoil (vaf. 261/874) Buxoriyning xotirasi kuchli

[7] Xotib, “Tarix” 324; Zahabiy, “Siyar” XII, 416; Ibn Hojar, “Hadiy us-Sari’”, 669-bet.
[8] Zahabiy, “Siyar” XII, 416
[9] Abulqosim Ali ibn Hasan ad-Dimashqiy ash-Shofeiy, “TArixul madinati Dimashq”, 72-bet

bo‘lganligini e’tirof etib, bu haqida shunday hikoya qiladi: “Bir kuni biz talabalar bir guruh bo‘lib, Buxoriy bilan birga dars olishga bordik. U darsda o‘tirib, boshqa talabalar singari tinglardi, ammo hech narsani yozib olmasdi. Bir gal darsdan so‘ng, biz Buxoriydan, “Nega biror bir hadisni yozib olmading?” deb so‘radik. U bizga: “Menga yozib olish shart emas, men eshitgan hadislarning barchasini xotiramda saqlab qolaman ”, dedi. Biz bu gapga ishonmadik va uni sinab ko‘rishga qaror qildik. Bir hafta o‘tgach, Buxoriydan daftarimizga yozib olgan barcha hadislarni so‘rab, uni sinab ko‘rdik. U bizga yozganlarimizni aynan so‘zma-so‘z qayta takrorlab berdi, bitta ham xato qilmadi, hamma hadislarni yoddan aytdi. Hatto shunchalik to‘g‘ri aytib berdiki, biz o‘z yozganlarimizni uning aytganidan tuzatib chiqdik. Keyin u bizga “Sizlar meni bekorga kelib-ketyapti, deb o‘yladingiz, to‘g‘rimi?” dedi. O‘sha kuni men ishonch hosil qildimki, u kelajakda muhim shaxs bo‘ladi va hech kim unga tenglasha olmaydi”.[10]

Buxoriyning darsda eshitgan narsalarini yozmayotganini ko‘rganlar, uni ajablanib kuzatishar va Buxoriy bu hadislarni Buxoroga qaytganidan so‘ng yoddan yozib berishini aytganlari haqida ham rivoyatlar mavjud. Bu ham uning yuksak xotira kuchini tasdiqlovchi dalildir. Boshqa bir rivoyatga ko‘ra, Buxoriy bir hadis kitobini qo‘liga olib, uni tezlik bilan ko‘zdan kechirar va qisqa vaqt ichida kitobdagi hadislarning boshlanish qismlarini yodlab olardi. Ibn Hojar ham Buxoriyning bu yuksak xotira kuchini maqtov bilan tilga olgan. U mana shu o‘tkir zehni va kuchli xotirasi tufayli dunyoning turli burchaklariga borib, turli shaxslardan hadislarni to‘plagan va bir necha o‘n yillar davomida ilmiy sayohatlarda bo‘lib, minglab hadislarni yodlab, ularni to‘g‘ri va ishonchli ravishda tasniflashga muvaffaq bo‘lgan.

[10] Husayniy, al-Imam al-Bukhari, 52-bet

Bir safar Imom Buxoriyni sinash, uning nomini pastga tushirish maqsadida unga yuzta hadisni sanad va matnlari aralashtirilgan holda o‘qib berishgan va bu hadislar haqida nima deya olishini so‘rashgan. U esa ularning barchasini yoddan to‘g‘rilab berib, o‘sha majlisda bo‘lganlarning barchasini hayratda qoldirgan. U ham o‘z vatanida, ham ilmiy safarlarida ko‘plab olimlar bilan uchrashgan va ulardan dars olgan, katta foydalar ko‘rgan. Rivoyat qilinishicha, Buxoriy mingdan ortiq ustozdan hadis yozib olgan, va ular orasida muhaddis bo‘lmagan hech kim yo‘q edi. Bu uning o‘z ustozlarini juda sinchkovlik bilan tanlaganini ko‘rsatadi.

Imom Buxoriy hayotlik paytida yuksak shon-shuhrat va obro‘-e’tibor topgan, ko‘plab odamlar undan hadis tinglashgan va rivoyat qilgan. Buxoriyning mashhur shogirdlaridan bo‘lmish Muhammad ibn Yusuf al-Firabriyning aytishicha, to‘qson ming kishi undan “Al-Jome as-Sahih”ni eshitgan. Turli shaharlarda o‘tkazgan darslarida minglab tinglovchilar qatnashgani ham rivoyat qilingan. Uning shogirdlari orasida Muslim, Abu Zur’a ar-Roziy, Termiziy, Abu Xotim ar-Roziy, Solih Jazara, Nasoiy, Firabriy va Ibn Xuzayma kabi taniqli muhaddislar bor.[11]

Olimlarning Buxoriy nomini hurmat bilan tilga olishlari va ilmiy masalalarda uni hakam tayin qilishlari, uning ilmiy shaxsiyati va obro‘si qay darajada bo‘lganligini yaqqol ko‘rsatadi. Bu borada, uning ustozlaridan Amr ibn Ali al-Fallas Buxoriy bilmagan hadisga hadis deyilmasligini aytganligi misol bo‘la oladi. Yana bir ustozi Muhammad ibn Salam al-Bikandiy bilan Abdulloh ibn Yusuf at-Tinnisiy hadis kitoblarini unga tuzatish uchun berganlar. Hatto, Humaydiyning o‘zi hadis masalasida bir muhaddis bilan kelishmovchilikka tushganda, hali 18 yoshdagi shogirdi Buxoriyni hakam tayin qilgan.[12] Bu kabi ko‘plab voqea-rivoyatlardan ham ko‘rinib turibdiki,

[11] Xolid ibn Sulaymon ar-Rumiy, “Manhaj ul-Imam ul-Buxoriy di Sahihihi”, Riyod, 2015. 18-19-betlar
[12] Zahabiy, “Tarix”, 246, 254, 259.

Buxoriy ham o‘z davrida, ham undan keyingi davr muhaddislari tomonidan katta ehtirom va maqtovlar bilan tilga olingan.

Buxoriyning asarlari ham uning hadis ilmidagi mavqeyi bejiz emasligini isbotlaydi. U hadis ilmining turli sohalarida ko‘plab asarlar yozgan. Uning “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-tarix as-sag‘ir”, “At-tarix al-avsot”, “At-tarix al-kabir”, “Kitob al-ilal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” kabi asarlari juda mashhur, ammo ularning ba’zilari, afsuski, bugungi kunga qadar to‘liq shaklda yetib kelmagan.

Uzoq yillik ilmiy safarlaridan keyin Nishopurdan o‘z vatani Buxoroga qaytganida, shahar tashqarisida unga chodirlar tikilib, Buxoriy katta hurmat bilan kutib olinadi, olimlar bilan birga butun Buxoro xalqi uning hadislarini ishtiyoq bilan tinglashni boshlagan. U uyda, masjidda va boshqa ko‘plab joylarda hadis rivoyat qilib, darslari omma orasida katta qiziqish bilan kuzatila boshlaydi. Ko‘pchilik uni hurmat qilgan, ammo uning shuhrati, obro‘siga hasad qilgan bir qancha ichi qora kishilar Buxoriyga yomonlik tilay boshladilar. Ularning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Buning sababi sifatida manbalarda keltirilishicha, amir Imom Buxoriydan o‘zining saroyiga kelib, “Al-jome’ as-sahih”, “At-tarix” kitoblarini o‘qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy “Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo‘lsa, o‘zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilganim uchun meni kechiradi”, — degan javobni aytadi.[13] Amirga bu javob yoqmaydi va fitnakor, bo‘htonchi insonlarning gapiga kirib, al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan so‘ng Buxoriy Samarqandga qarab yo‘l oladi va birmuncha muddat

[13] Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. [Mas’ul muharrir: V.Rahmonov]. Qayta ishlangan 4-nashri. —T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2019.

u yerdagi Xartang qishlog‘ida o‘z shogirdlari va qarindosh-urug‘larining uyida yashaydi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, al-Buxoriy og‘ir kasalga chalinadi va hijriy 256-yil (milodiy 870- yil 31- avgust)da Ramazon hayiti arafasida 60 yoshida(ba’zi manbalarda 62 yoshda deyiladi) vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi. [14]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xotib, Abu Bakr Ahmad b. Ali b. Sobit al-Bag‘dodiy, “Tarixi Bag‘dod av Madinat as-Salom”, Bashshar Avvad Ma’ruf, Dorul-G‘arbi-Islomi Bayrut, 2001/1422, II
2. Ibn Hojar, Abu Fazl Shahobiddin Ahmad bin Ali Muhammad al-Asqaloniy, “Hadyus-Sari’ Muqaddimatu Fathil-Baari’ Sharhu Sahihil-Buxoriy”, Damashq, 2000
3. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al-Juafiy, “Kitob at-Tarixil-Kabir” Darul-Kutubil –Ilmiyya, Bayrut
4. Abulqosim Ali ibn Hasan ad-Dimashqiy ash-Shofeiy, “Tarixul madinati Dimashq”
5. Husayniy, “Al-Imam al-Bukhari”.
6. Xolid ibn Sulaymon ar-Rumiy, “Manhaj ul-Imam ul-Buxoriy di Sahihihi”, Riyod, 2015.
7. Zahabiy, “Siyar”, XII,
8. Ibn Hojar, “Hadyatus-Sari’”.

[14] Zahabiy, “Siyar”, XII, 466; Ibn Hojar, “Hadyatus-Sari’”, 688-bet

9. Abul Husayn Muslim ibn al-Hajjoj al-Qushayriy, “Sahihu Muslim”, Bayrut, 2010.
10. Xotib, “Tarix” II